

O‘SMIRGA XOS AGRESSIYA VA UNING PSIXOLOGIYADA O‘RGANILISHI

Qodirova Malikaxon Kaxramonovna – JDPU, katta o‘qituvchi
Ismoilova Madina Farxod qizi – JDPU, talaba

Annotasiya: Maqolada o‘smirlik davri psixologiyasi va o‘smirlik davrida sodir bo‘ladigan salbiy o‘zgarishlar yoritib berilgan. Shu bilan birga o‘smirga xos agressivlik va uning kelib chiqish sabablari hamda bu borada olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, o‘smir psixologiyasi, agressivlik, salbiy xulq-atvor, o‘zaro munosabatlar, oila, tengdoshlar muhiti, jamoa, ota-ona, kelishmovchiliklar.

Аннотация: В статье описывается психология подросткового возраста и негативные изменения, происходящие в подростковом возрасте. При этом представлены подростковая агрессивность и ее причины, а также исследования, проведенные учеными в этом направлении.

Ключевые слова: подростковый возраст, психология подростков, агрессивность, негативное поведение, отношения, семья, среда сверстников, сообщество, родители, разногласия.

Abstract: The article describes the psychology of adolescence and the negative changes that occur during adolescence. At the same time, adolescent aggression and its causes are presented, as well as research conducted by scientists in this direction.

Key words: adolescence, adolescent psychology, aggressiveness, negative behavior, relationships, family, peer environment, community, parents, disagreements.

O‘smirlik - bolalikdan kattalikga o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tez lashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga yetish bosqichi bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taaluqli chigal vaziyatlarning paydo bolishi bilan ham xarakterlanadi.

Bu borada ko‘plab psixolog olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, Vigotskiy o‘smirlik davridan qiziqishlarning o‘zgarishiga bog‘liq ravishda ikki farazni salbiy va ijobiy ta’sirni ajratib ko‘rsatgan. Bunda quyidagi salbiy xulq atvor ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi: ish qobiliyatining, o‘zlashtirishning pasayishi, o‘smirlarning qo‘polligi va yuqori qo‘zg‘aluvchanligi, uning o‘zidan qoniqmasligi, havotirlanishi va agressiya. Ijobiy tomoni keng va chuqur yangi qiziqishlarning

paydo bo'lishi bilan harekterlanadi, shu bilan birga ularda boshqalarning va o'zini psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo'ladi.

D.R.Rahmonova qo'rquvning ijtimoiy psixologik xususiyatlarni yoritib berar ekan, oiladan tashqarida o'smirlarda emotsional xususiyatlar namoyon bo'lishiga hamda shaxsni psixik holatlarini ko'rsatkichlariga ko'ra oilada tarbiyalanayotgan o'smirlardan farq qilishini aytib o'tgan. D.R.Rahmonova tadqiqotlarini ijobiy tomoni shundaki u bu davr xususiyatlarini turli muhitda tarbiyalanayotgan o'smirlar misolida o'rgandi

U G.V.Xurulnovaning fikricha o'smirlarning stressli vaziyatlardan chiqish malakalarining mavjud emasligi xulq atvorning kognitiv bosqichda ma'lum darajada stressdan keyingi buzilishlarni vujudga keltiradi. U o'smirlarda stress reaksiyalarni vujudga kelishiga oiladagi, tengdoshlaridagi va kattalar bilan shaxslar aro munosabatlar jarayonidagi muammolar sabab bo'ladi deb hisoblaydi.

O'smirning o'z agressiyasining namoyon qilishni o'zlashtirishiga oilada aka-uka va opa-singillarning o'zaro munosabatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu fikr Felson tadqiqoti (Richardson D. Beron R.1997) da o'z aksini topdi. Ushbu tadqiqot natijasida o'smirlar jismoniy va verbal agressiyaning ko'proq qismini o'z opa-singil va aka ukalariga yo'naltirishlari aniqlandi. Bu tadqiqot natijasida ota-onaning farzandning agressivligiga nisbatan munosabati bola va ota-ona o'rtasidagi munosabatga o'z ta'sirini o'tkazishi aniqlangan.

O'smirlarda endokrin sistemasi bilan bo'g'liq o'zgarishlar nerv sistemasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ularda tez jahl chiqishi, agrssivlik kabi holatlar kuzatiladi. Barcha o'smiralda kuzatiladigan bu jarayonlarda ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatishimiz darkor.

O'smirlarning kattalarga nisbatan munosabati murakkabdir. Haqiqatdan ham o'zini kattalarga qarshi turish, mustaqil sub'yekt sifatida o'z fikrini bildira olish yaqqol namoyon bo'ladi. O'smirlarga bildirilgan ishonchga katta ehtiyoj sezadi. Ota onaning yoki o'qituvchining o'smir bilan ishonchi unda mas'uliyatni oshiradi. Bu davrda bolalarning idrok, diqqat va tasavvuri rivojlanadi. Ularda ichki erkinliklari o'sishi, o'z-o'zini anglash layoqatlarida o'zgarish yuz beradi va o'smirlarga bildirilgan ijobiy fikrlar ham juda muhim. Chunki asosan ular bu yoshda tanqidni qabul qilishlari qiyin. Jamoa oldida o'smir bolani e'tirof etish, maqtash unda kelajakda bo'lgan ishonch va maqsadlar hosil bo'ladi. Bu davrda kattalarga taqlid qiladi yoki o'z hurmatini talab qila boshlaydi, o'zlarini mustaqil fikrlay olishi va biror ishni albatta uddasidan chiqa olgandek ko'rsatadi, ammo o'smirda hali psixologik imkoniyatlar yetarli emas yoki rivojlanmagan bo'ladi.

Ular muloqot davomida kattalarning qo'llab quvvatlashiga ehtiyoj sezadi. Birgalikda faoliyat o'smirga kattalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi O'smir o'zida kechayotgan psixik jarayonlarni muammolari haqida ota onasiga gapirishni xohlaydi ammo qo'rquv ikkilanish ishonmaslik tuyg'ulari ustunlik

qiladi. O'smirlik davri xususiyatlarini talqin qilgan olimlar takidlashicha o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlari yanada mustahkamladi. Do'stlar orasida ishonch muhim rol o'ynaydi. Chunki bu yoshdagi bolalar oiladagi kelishmovchiliklarni shaxsiy sirlarini asosan do'stlariga aytadi. Yana ularda g'urur tuyg'usi ham shakllanadi. Shuning uchun ham o'smirlarni hammani oldida kamsitish, haqoratlash holatlari ularda agressiyani paydo qiladi.

Bundan tashqari o'smirlar agressiv xatti-harakatning paydo bo'lishi va namoyon bo'lishida quyidagi sabablar mavjud:

1. Oilaviy muhitning nosog'omligi. Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar, o'zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, oiladagi rahbarlik uslubining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va noto'liq bo'lgan oilalarning mavjudligi o'smirlarda agressiyaning paydo bo'lishiga olib keladi.

2. Tengdoshlar guruhi. O'smirlar doim o'zgalarga taqlid qiladilar. Ular tengdoshlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o'z tengdoshlari orasida siqib chiqariladi.

3. Zararli odatlar. Hozirgi kunning global muammolaridan bo'lib, o'smirlarda to'be xulq-atvorni (ichish, chekish, narkomaniya, fohishabozlik) keltirib chiqaradi va natijada o'smirde agressivlik paydo bo'ladi.

O'smirlik davrida e'tibor qilinishi kerak bo'lgan holatlar:

- ✓ O'smir yoshidagi bolarga etiborli bo'lish lozim;
- ✓ Pedagoglar o'smirlarda kuzatilyotgan salbiy odatlari, xatolari bilan yakka tartibda shug'ullanishlari lozim;
- ✓ Ota onalar o'smirlarni qiziqishlarni, orzularini qo'llab quvvatlashlari va ularning fikrlarini ham inobatga olish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, psixologlar o'smirlarga oid ko'plab tadqiqotlar olib borganlariga qaramasdan va yetarlicha tavsiyalar berilganiga qaramasdan, atrofda bo'layotgan o'zgarishlar o'smir xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi

O'smirni psixikasi ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi jamiyat bilan bevosita bog'liqdir. Bu yoshda bolalarga har qanday sharoitda etibor tarbiya bera olish kerak chunki aynan shu yoshda kelajagi bilan bo'g'liq qarorlarni qabul qila boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. T. Nishonova, N. G. Komilov, D.U. Abdullayev, M.X. Xolnazorova. Rivojlantirish psixologiyasi Toshkent 2018. 337-338-340-betlar.
2. D. R. Рахмонова. Особенности детерминации страха у подростков с различной ситуацией развития Toshkent 2006. 152-bet.
3. Г.А.Хурульнова Психологические особенности пострессовых состояний у подростков Ташкент 2006.160 с.

4. Ta'lim va inavatsion tadqiqotlar jurnali. 2012 yil, 380-bet
5. Xalqaro anjuman to'plami. Toshkent – 2021 yil, 24 noyabr, 431- bet
6. Malikaxon Qodirova, [MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
7. Malikaxon Qodirova, [МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2021\): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari](#)
8. Malikaxon Qodirova, [O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
10. Malikaxon Qodirova, [AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
10. Malikaxon Qodirova, [ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2020\): Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)
11. Malikaxon Qodirova, [ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2020\): Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)
12. Qodirova, M. (2023). DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN. *Science and innovation*, 2(B4), 258-261.
13. Atamurodova, R. (2022). АБДУЛЛА ОРИПОВНИНГ «СОҲИБҚИРОН» ДОСТОНИ-ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙҒУРУР ВА ИФТИХОР ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).
14. Atamurodova, R. (2021). ВЗГЛЯДЫ АВИЦЕННЫ О ДУШЕ И РАЗУМЕ ЧЕЛОВЕКА. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4).
15. Atamurodova, R. (2021). ЎҚУВЧИЛАРДА ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА БАДИИЙ АСАРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4).
16. Алимкулов, С. О. У., Атамуродова, Р. К., & Жуманова, Н. Ш. (2017). Внедрение современной информационной технологии в систему народного образования в Узбекистане. *European science*, (7 (29)), 43-45.
17. Шодиев, Х. Т., Атамуродова, Р. К., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Психологические воззрения учёных Средневековья. *Academy*, (6 (9)), 102-103.

18. Атамуродова, Р. К., Жуманова, Н. Ш., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Взгляды Авиценны о душе и разуме человека. *Academy*, (11 (14)), 72-73.

19. Atamurodova, R. (2024). ЎҚУВЧИЛАРДА ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАДИИЙ АСАРЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(5). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9357>

20. Odiljonova, K. (2023). O‘QUVCHILARDA SOG‘lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. *Fan va innovatsiyalar*, 2 (B4), 267-272.

21. Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5).

22. Abduazizkhan, A. Y. (2023). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ETHICAL ATTITUDES IN STUDENTS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 216-220.

23. Камолова, Ш. У. (2023). ЎҚИТУВЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШ АСОСИЙ ОМИЛ СИФАТИДА: Камолова Ширин Усаровна, ЖДПУ катта ўқитувчиси Амонхонова Янглишхон, Педагогика ва психология йўналиши 2-босқич магистри. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (2), 123-126.

24. Odiljonova, X. (2024). O‘QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9411>

25. Amonxonova, Y. (2024). INNOVATION TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA INNOVATION BOSHQARUVI HAMDA AXBOROT TA'MINOTI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 12-20. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9412>

26. Odiljonova, X. (2024). O‘QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9411>

27. Alibekov, D. (2024). TA'LIM TIZIMIGA INNOVATION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 21-26. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9446>

28. Qodirova, M. (2022). O‘SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>

29.Qaxramonovna, Q. M. (2022, March). TARBIYASI QIYIN O'SMIRLAR BORASIDAGI TADQIQOTLAR. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 1).

30.Qodirova, M., & Abirqulova, S. (2022). O'SMIRLARGA XOS AGRESSIVLIK VA UNING KO'RINISHLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6416>

31.Qodirova, M., & Nasimov, D. (2022). MUTAFFAKKIR OLIMLARIMIZ O'QUV FAOLIYATI XAQIDAGI QARASHLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6415>

32.Qodirova, M., & Nasimov, D. (2023). PSIXOLOGIYADA QO'RQUV MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILISHI . *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7725>

33.Кадырова Маликахон Кахрамановна, КОНФЛИКТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА. Джизакский Государственный педагогический университет, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7600237>